

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

ISSN 2181-8150

Ilmiy-amaliy jurnal

№3. 2024



24-bet

MAROKASH CHIGIRTKASIGA
QARSHI (*DOCIOSTAURUS
MAROCCANUS*) *BACILLUS
THURINGIENSIS* BAKTERIYA
SHTAMMINING KULTURAL
SUYUQLIGINI QO'LLASH
SAMARADORLIGI

144-bet

BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI
ASRASHDA O'RMONLASHTIRISH
TADBIRLARINING AHAMIYATI



240-bet

XORAZM VILOYATI IQLIM
SHAROITIDA KUNJUT
SELEKSIYASI UCHUN
BIRLAMCHI MANBALAR
YARATISH VA MAQBUL EKISH
MUDDATLARINI ANIQLASH



"AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI"

Ilmiy-amaliy jurnal

BOSH DIREKTOR

Mariyamxon
BOQIYEVA

MAS'UL KOTIB

Abdunabi
ALIQULOV

SAHIFALOVCHI

Ulug'bek
MAMAJONOV

Jurnal O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2017-yil
26-mayda 0560-raqam bilan
ro'yxatga olingan. O'zbekiston
Respublikasi Oliy attestatsiya
komissiyasi Rayosatining 2017-yil
30-martdagi №239/5-sonli qarori
bilan qishloq xo'jalik fanlari bo'yicha
ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2008-yildan chiqa boshlagan.

Bir yilda 6 marta chop etiladi.

Nashr e'lon qilingan sana:
07.06.2024-yil.

Manzil:
Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
Bunyodkor shoh ko'chasi. 50 a-uy.
Tel: (+998 90) 353-37-77
(+998 90) 946-22-42
Web sayt: karantin-jurnali.uz
Telegram: karantinjurnali
Facebook: karantinjurnali
e-mail: karantinjurnali@mail.ru

PAXTACHILIK

- Б.МАДАРТОВ, Ф.АБДИЕВ, Н.МАВЛОНОВА.** Ёўзанинг ингичка толали
нав ва йирик кўсакли тизмаларини ўзаро дурагайлаш натижасида олинган
F₁ ўсимликларда қимматли хўжалик белгиларининг ирсийланиши 186
- Н.НАРИМАНОВ, Б.МАДАРТОВ, Н.МАВЛОНОВА.** *G.Barbadense* L.
турига мансуб F₁-F₂ ўсимликлариди ўсув даври ва биринчи ҳосил шохи
жойлашган бўғин белгиларини ирсийланиши ва ўзгарувчанлиги 190
- Ш.САМАНОВ, И.САМАТОВ, Б.АМАНОВ, Д.АРСЛАНОВ.**
Вўза популяцияси биотипларида қимматли хўжалик белгиларининг
кўрсаткичлари 194
- Б.МАМАРАХИМОВ, О.АХМЕДОВ, М.ХАЛИКОВА.** Хозяйственная
значимость образцов культивируемых форм *G.Arborescens* L. и *G.Herbaceum* L. ... 197
- О.МУХАММАДИЙЕВА, Ш.УЛУГ'ОВ, М.ЗИЯТОВ.**
G'ozaning o'sishi, rivojlanishi hamda hosil to'plashiga sug'orish tartibi
va biostimulyatorlarning ta'siri 200
- Х.МАХСАДОВ, С.МАХСАДОВ, Ғ.КАРАЕВ, А.УМИРЗОҚОВ.**
Суғориш усулларида ёўзанинг ўсиши, ривожланиши
ва пахта ҳосилдорлигига таъсири 202
- Ғ.НАМАЗОВ, А.ТУРСУНОВ, И.ДИЛОВ.** G'oz'a va qo'sh ekinlarning
barg sathi hamda fotosintez so'f mahsuldorlik ko'rsatkichlari 205

G'ALLACHILIK

- Б.АЗИЗОВ, Н.ЯКУБЖАНОВА, Ж.ЖАЛИЛОВ.** Формирование урожая
и качество зерна озимой пшеницы при поздней азотной подкормки
на типичных сероземных почвах 207
- Б.АЗИЗОВ, К.ХАСАНОВА.** Формирование урожая и качества зерна
озимой пшеницы при некорневой подкормки 210
- Б.БОЙНАЗАРОВ, З.НАРБАЕВ, С.ЭРГАШЕВ.** Огир металллар билан
ифлосланган тупроқ шароитида кузги бугдой ўсимлигини етиштиришда
биопрепаратларни бугдойнинг сифат кўрсаткичларига боғлиқлиги 215
- В.АТОЕВ.** Кузги бугдой urug'ini unib chiqishiga tuproq va o'g'itlar
me'yoring ta'siri 216
- Ф.ЖУМАЕВ, Ш.АДИЗОВА.** Кузги бошоқли дон экинларини касалликка
чидамли бўлишида минерал ўғитлар билан озиклантиришнинг аҳамияти .. 219
- А.ОМОНОВ, И.МАМИРОВ.** Такрорий экин сифатида экилган тарикнинг
фотосинтетик фаолиятига экиш муддат ва меъёрларининг таъсири 222
- М.АВЕРКУЛОВ, В.АБДУЛЛАЕВ.** Sholi kolleksiyasi namunalarning
tuproq sh'rligiga va kasalliklarga chidamliligini o'rganish 224
- М.АМАНОВА, Х.ХУДОЁРОВА.** Кам тарқалган яшил нўхат (*Pisum sativum* L.)
нинг қимматли хўжалик белгиларига эга бўлган нав намуналарни танлаш 227
- М.ХОЛИКОВА, Р.ХАМРАЙЕВ, Ҳ.АБДРАШИДОВА.** Такрорий экин
сифатида экилган турли соя навларининг айрим морфологик ко'rsatkichlari 229
- Ф.ТОШМЕТОВА.** Фузариоз касаллигининг соянинг дон ҳосилдорлигига
таъсири 232
- М.МАШРАБОВ, С.ҚОЗОҚБОВ.** Типик бўз тупроқлар шароитида
маккажўхорида юқори ҳосил олиш имконияти 234
- Х.РАХМОНОВА.** Соянинг "Олтинтож" ва "Сочилмас" навларининг
ҳосил структураси ва ҳосилдорлиги 236
- И.АБДУЛЛАЕВ, М.ПИРОВА.** Кузги тритикале навларида барг сатҳининг
шаклланишига уруғ экиш муддатлари ва меъёрларининг таъсири 237
- М.АМАНОВА, А.РУСТАМОВ.** Xorazm viloyati iqlim sharoitida kunjut
seleksiyasi uchun birlamchi manbalar yaratish va maqbul ekish muddatlarini
aniqlash 240
- М.АЗИМОВА.** Қашқадарё вилояти оч тусли бўз тупроқлари шароитида
кузги бугдой етиштириш агротехнологиялари 244

YER-SUV RESURLARI VA TUPROQSHUNOSLIK

- Т.ҚЎЗИЕВ, М.ЗУПАРОВ, М.МАМИЕВ, Н.БЕКМУХАМЕДОВА.**
Тупроқ замбуруғларини антагонистик хусусиятлари 246
- А.МАШАРИПОВ, В.ҲУСУПБОВ, С.АТАНАЗАРОВ.**
Tuproqlarning ekologik meliorativ holati 248
- У.НОРҚУЛОВ, И.ЭРГАШЕВ, Н.ҒАДАЕВ.** Кучли шўрланган
ва шўрроқ тупроқларида полиз экинларини сунъий ўстириш 251
- Т.АБДРАХМОНОВ, Қ.НОРМУРОДОВА, М.КАРИМБОВЕВА.**
Mo'ynoq tumanining qurg'oqlanish indeksi 254
- С.СИДИКОВ, О.ЕРҒАШЕВА, С.ҲУСУПОВА.** Paxtachilikda tuproq
unumdorligini oshirishda innovatsion agrotexnologiyalarni qo'llash 256
- Н.АЛИМКУЛОВ, С.БЕРДИЙОРОВ.** Qo'zgaruvchan iqlim sharoitida suv
resurslaridan foydalanishning ayrim muammolari (Sirdaryo viloyati misolida) ... 259
- С.ЮЛДАШЕВА, А.ЖЎРАЕВ, А.УРИНОВА.**
Атроф-муҳитнинг саноат чиқиндилари билан ифлосланиши 262

андозага нисбатан Республикамизда фермер хўжаликларида етиштирилаётган давлат реестрига киритилган “Сюрприз” нави нисбатан ҳосилдорлик 20% га ортганлиги кузатилди.

Ўрганилаётган намуналардан фақат Сюрприз навидагина гулининг ранги сиёҳранг бўлиб, бошқа навларда эса оқ ранг, гулининг йириклиги эса бир хил эканлиги кузатилди (2-расм).

Яшил нўхат бошқа дуккакли экинларга нисбатан намликни яхши кўради. Эрта баҳорда нўхат экишда дала нам сиғими 70-75 фоиздан кам бўлмаслиги керак. Тупроқ намлиги қанчалик қори бўлса (80-90%) уруғлар бир текисда ёппасига униб чиқади. Ҳарорат юқори бўлиб, тупроқ таркибида намлик етишмаса (такрорий муддатларда экилганда) уруғларни моғорлаб қолишига сабаб бўлади. Ўсимликнинг намликка бўлган энг юқори талаби шоналаш, гуллаш ва мум пишиш даврига тўғри келади. Ўсув даври давомида тажриба даласида 3-4 мартда

кўл меҳнати ёрдамида ҳосил йиғиб олинди

Хулоса ва таклифлар. Ҳосилдорлик белгиси бўйича Пегас (390-400 г/м², Украина), Дитяче захопления (400-420 г/м², Украина), Суперсахарны (400-440 г/м², Украина), Джокер (390-400 г/м², Украина), ва Шеститижневий новинка (320-390 г/м², Украина), Джессика 380-400 г/м², Украина), Келведонске диво (400-420 г/м², Украина), нав намуналари, Республикамизда фермер хўжаликларида етиштирилаётган давлат реестрига киритилган “Сюрприз” нави нисбатан ҳосилдорлик 20% га ортганлиги аниқланди.

Республикамиз иқлим шаротида яшил нўхатдан йил давомида 2-3 мартда ҳосил етиштириш имкони бўлиб, Тошкент вилояти иқлим-шароитида март ойининг биринчи ўн кунлигида Суперсахарны, **Келведонске диво**, **Джокер** навларини экишга тавсия этилади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Рустамов А.С., Аманова М.Э., Худойкулов Ж.Б. Яшил нўхат ва ясмиқ етиштириш бўйича тавсиянома. 2021 й.
2. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида экиш учун тавсия этилган қишлоқ хўжалик экинлари давлат реестри. 2020 йил.
3. Остонакулов Т.Э., Зуев В.И., Қодирхўжаев О.Қ. Сабзавотчилик. 2009.
4. Доспехов Б.А.-Методика полевого опыта. Изд.5-М. Агропромиздат 1985. С.361.
5. www.Agrocouncil.ru.
6. www.Balezni.ru.
7. <https://calorizator.ru/product/vegetable/green-peas-2>

UO‘T: 581.14

TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN TURLI SOYA NAVLARINING AYRIM MORFOLOGIK KO‘RSATKICHLARI

**Xolikova Moxichexra Azamatovna,
Xamrayev Rustam Juraqulovich,
Abdrashidova Yelena Vladimirovna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti.**

Annotatsiya. Ushbu maqola dala sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlarining maysalash, g‘unchalash davridagi morfologik belgilardan ildiz uzunligi va bosh poya balandligi ko‘rsatkichlarini aniqlashga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: soya, mahalliy, xorijiy, ildiz, poya, fiziologik, morfologik.

Аннотация. Эта статья посвящена определению показателей длины корня и высоты основного стебля по морфологическим признакам периода всходов, бутонизации местных и зарубежных сортов сои, высаживаемых в полевых условиях в качестве повторной культуры.

Ключевые слова: соя, местная, зарубежная, корень, стебель, физиологический, морфологический.

Abstract. This article is devoted to determining the indicators of Root Length and head stem height from morphological signs of the mowing, humming period of domestic and foreign soybeans varieties planted as a repeated crop in field conditions

Keywords: soybean, domestic, foreign, root, stem, physiological, morphological.

Kirish. Madaniy soya, *Glycine max* (L.) Merr., *Leguminosae* oilasi, *Papilionoideae* kenja oilasi, *Phaseoleae* qabilasi, *Glycine Wild* jinsi. va *Soja* (Moench) kenja jinsidir. Soya o‘simligi poyasining balandligi 1,5 m gacha yetishi mumkin bo‘lgan tik, shoxlanuvchi bir yillik o‘simlik bo‘lib, 35 dan ortiq mamlakatlarda tijorat ekini sifatida yetishtiriladi. Soyaning asosiy yetishtiruvchilari AQSh, Xitoy, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi va Koreya Respublikasi, Argentina va Braziliyadir. Soya asosan urug‘lik uchun yetishtiriladi, oziq-ovqat va sanoat tarmoqlarida juda ko‘p qo‘llaniladi va chorvachilik uchun ozuqaviy o‘simlik yog‘i va oqsillarning asosiy manbalaridan biridir. Shuningdek, u turli xil oziq-ovqat mahsulotlarida, jumladan tofu, soya sousi, simulyatsiya qilingan sut va go‘sh mahsulotlarida qo‘llaniladi. Soya yormasi chorva mollari uchun ozuqa ratsionida qo‘shimcha

sifatida ishlatiladi [1.8].

Ma‘lumki, ildiz o‘simlikning asosiy organlaridan biri bo‘lib, o‘simliklar hayotida quyidagi fiziologik va mexanik vazifalarni bajaradi; tuproqdan suv va unda erigan mineral moddalarni qabul qiladi, o‘simlikni tuproqqa biriktirib turadi va natijada o‘ziga xos mustahkamlik amalga oshadi. O‘simlikni tuproqdagi mikroorganizmlar bilan munosabatini amalga oshiradi, zahira oziq moddalar to‘planishiga va vegetativ ko‘payishga xizmat qiladi [5.10].

Soya o‘simligi o‘q ildizli, asosiy qismi biroz yo‘g‘on, pastki qismi esa ingichkalashgan va ko‘p shoxli. Ildizining pastki qismi 150-200 sm gacha chuqurlikda bo‘lsada, ammo asosiy qismi tuproqning 50 sm gacha bo‘lgan qatlamida bo‘ladi. Ildizning o‘sishi o‘simlik donining shakllanishiga davom etadi [4.6].

Soya o‘simligining o‘q ildizlari tuproqning chuqur qatlamlariga

, barqaror suv manbasiga yetib borishiga imkon beradi. Yon ildizlar ozuqa moddalari to'planadigan tuproqning ustki qatlamida potentsial so'rilish sirt maydonini oshiradi. Suv va ozuqa moddalarini yangilash samaradorligini oshirish uchun soya o'simligi ikkala turdagi ildizlarga muhtoj[7.13].

Tadqiqot materiallari va uslublari. Ilmiy tadqiqot ishlari Samarqand viloyati Paxtachi tumani dala sharoitida 2020-2022 yillar mobaynida olib borildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida soya o'simligining mahalliy Ustoz-MMAAn-60, To'maris-MMAAn-60, Oyjamol, xorijiy Rossiya seleksiyasiga mansub Selekt-201(nazorat) va Sparta, Qozog'iston seleksiyasiga mansub Nena navlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Morfologik belgilar soya o'simligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi bois, tadqiqotlarimizda 2020-2022 yillar davomida Samarqand viloyati dala sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan mahalliy va xorijiy soya navlarining maysalash, g'unchalash davrlarida o'simlik bosh poyasining balandligi va ildiz uzunligi ko'rsatkichlari o'rganildi.

Soya o'simligining asosiy ildiz uzunligi ko'rsatkichi bo'yicha 2020 yilda olgan tajriba natijalarimiz tahliliga ko'ra, xorijiy navlar guruhida nazorat variantiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar xorijiy Sparta (8,20±0,25 sm) va mahalliy Oyjamol navlarida (8,11±0,28 sm), eng past ko'rsatkich esa mahalliy To'maris-MMAAn-60 navida (7,54±0,29 sm) kuzatildi.

2021 yil nazorat variantiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar xorijiy Nena va mahalliy Ustoz-MMAAn-60 navlarida (mos ravishda 8,57±0,37sm va 8,91±0,45sm), eng past ko'rsatkich esa mahalliy To'maris-MMAAn-60 navida (7,54±0,29 sm) kuzatildi. 2022 yilda barcha navlar nazorat variantiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qildi. 2020-2022 yillar davomida asosiy ildiz uzunligi ko'rsatkichlari 7 sm dan 9 sm gacha oraliqda bo'lganligi aniqlandi.

Soyaning turli xorijiy va mahalliy navlarining o'simlik bosh poya uzunligi ko'rsatkichlari 2020 yil olib borgan dala tajribalarimizda o'rganilganda, o'simlik vegetatsiyasining maysalash davrida olingan ma'lumotlar tahliliga ko'ra, o'simlik bosh poyasining balandligi belgisi bo'yicha xorijiy navlarda yuqori ko'rsatkich nazorat varianti Selekt-201 navida (6,33±0,15 sm), eng past ko'rsatkich esa xorijiy Sparta navida (4,88±0,17 sm) qayd etildi. Mahalliy soya navlari guruhida bosh poya balandligi belgisi bo'yicha nazorat variantiga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich mahalliy Ustoz-MMAAn-60 navida (11,21±0,65 sm), eng past ko'rsatkich esa mahalliy To'maris-MMAAn-60 navida (5,24±0,34sm) aniqlandi. 2020 yil maysalash davrida soya navlarida asosiy ildiz uzunligi 7 sm dan 8,5 sm, asosiy poya balandligi esa 5 sm dan 11 sm gacha oraliqda bo'lganligi qayd etildi (1-jadval).

2021 va 2022 yillarda nazorat variantiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar xorijiy Sparta (mos ravishda 7,51±0,3 sm va 7,62±0,17 sm) va mahalliy Oyjamol navida (mos ravishda 7,52±0,12 sm va 7,98±0,18 sm), eng past ko'rsatkich esa xorijiy Nena (mos ravishda 6,57±0,15sm va 6,59±0,14 sm) va mahalliy To'maris-MMAAn-60 navida (mos ravishda 6,4±0,22sm va 6,02±0,19 sm) ko'rsatkichlarni namoyon qildi va asosiy poya balandligi 6 sm dan 8 sm gacha oraliqda bo'lganligi aniqlandi.

Soya o'simligining ertapishar navlari past bo'yli va kam bargli, kechpishar navlari esa uzun va ko'p bargli bo'ladi. Agar soyaga yetarlicha havo va yorug'lik yetishmasa, gullari to'kilib ketib, hosil miqdori kamayadi. Soya o'simligining poyasi o'stirilayotgan muhitga navni erta pishar, kech pisharligiga bog'liq ravishda keskin o'zgaruvchan. Poyasi ko'pincha silindrsimon, balandligi 30 sm dan 2,5-3,0 metrgacha boradigan o't poyadir. Odatda tik o'suvchi bo'lib, o'sish sharoiti o'zgarganda ya'ni oziqlanish maydoni qisqartirilganda, bog'lar orasiga ekilib yorug'lik rejimi buzilganda poya nimjonlashib yotib qolishga moyilligi ortadi [3.9].

Soya o'simligi poyasining o'suv nuqtasi cheklangan, cheklanmaganligi eng muhim nav belgi hisoblanadi. Agar nav ertapishar, o'rtapishar bo'lsa poya cheklangan tipda bo'lib, gul, mevalari poyaning uchida to'p bo'lib joylashadi bunday navlarning poyalari past bo'ylik bo'ladi. Buni Oyjamol va To'maris-MMAAn-60 navlarida ko'rishimiz mumkin va ularni determinant navlar deyiladi. Kechpishar navlarda esa, poya cheklanmagan darajada o'saveradi, poyaning uchida gul va barglar joylashgan bo'lib, poyaning bo'g'imlari zig-zagsimon, sal o'ralgan bo'lishi bilan birga ulardagi gullashi sovuq tushgunga qadar davom etaveradi va poya baland bo'ylik bo'lib, bu indeterminant navlarga xos xususiyat hisoblanadi, bunga Ustoz-MMAAn-60 navini misol qilishimiz mumkin. Ammo soya poyasining balandligi, yo'g'onligi, undagi bo'g'imlar soni shoxlanish darajasi singari belgilari o'simlikni o'stirilgan tuproq iqlim sharoitlariga va ayniqsa, qanday o'stirilganligiga bog'liq ravishda tez o'zgaradi [12.14].

G'unchalash bosqichi shoxlanish bilan deyarlik bir vaqtda boshlanadi. Soyaning g'unchalash bosqichidagi o'simliklarda barg hosil bo'lishi eng ko'p bo'ladi va o'simlikni suvga bo'lgan talabining kritik davri bo'lib hisoblanadi, shu bosqichdan boshlab soyazorlardagi o'simliklarning suvga bo'lgan talabi orta boradi va endi tuproqdagi namlik CHDNSga nisbatan 70-75 foiz bo'lishi o'simlikni yaxshi gullab, gullarni ko'proq qismining changlanishini ta'minlaydi. Soyani gullarini changlanishi aynan g'uncha ichida ro'y beradi [2.11].

1- jadval.

Samarqand viloyati dala sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining maysalash bosqichidagi asosiy ildiz uzunligi va bosh poya uzunligi ko'rsatkichlari(sm).

T/r	Mahalliy va xorijiy soya navlari	Asosiy ildiz uzunligi, sm			Bosh poya uzunligi, sm		
		2020	2021	2022	2020	2021	2022
1	Selekt-201 (nazorat)	7,93±0,20	8,15±0,12	7,75±0,12	6,33±0,15	7,04±0,18	6,74±0,22
2	Sparta	8,20±0,25	8,50±0,27	7,78±0,11	4,88±0,17	7,51±0,3	7,62±0,17
3	Nena	8,01±0,18	8,57±0,37	8,16±0,27	5,18±0,13	6,57±0,15	6,59±0,14
4	Oyjamol	8,11±0,28	8,47±0,4	8,12±0,3	7,48±0,66	7,52±0,19	7,98±0,18
5	Ustoz-MMAAn-60	7,96±0,29	8,91±0,45	8,43±0,38	11,21±0,65	7,12±0,12	7,4±0,25
6	To'maris-MMAAn-60	7,54±0,29	7,93±0,16	8,22±0,19	5,24±0,34	6,4±0,22	6,02±0,19

Samarqand viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining g'unchalash bosqichidagi asosiy ildiz uzunligi va bosh poya uzunligi ko'rsatkichlari(sm).

T/r	Mahalliy va xorijiy soya navlari	Asosiy ildiz uzunligi,sm			Bosh poya uzunligi,sm		
		2020	2021	2022	2020	2021	2022
1	Selekta-201 (nazorat)	29,72±0,73	26,26±0,83	26,69±0,86	27,34±0,24	19,84±0,36	22,13±0,62
2	Sparta	29,75±1,56	27,0±1,48	26,75±1,28	21,19±0,16	23,08±0,64	23,08±0,64
3	Nena	29,49±1,00	27,73±0,82	27,54±0,86	28,78±0,42	20,98±0,42	22,29±0,55
4	Oyjamol	30,95±0,82	26,55±0,8	26,77±0,78	28,61±0,48	24,49±0,6	24,49±0,6
5	Ustoz- MMan-60	29,3±0,71	26,63±1,26	25,21±0,9	28,52±0,55	22,9±0,92	23,26±0,86
6	To'maris- MMan-60	30,52±1,97	25,58±0,44	26,99±0,62	29,5±0,53	19,37±0,4	19,31±0,3

G'uncha bu - o'simliklarning gul kurtagi hisoblanib, yozilganda gulga aylanadi. G'uncha o'simliklarning oddiy barg kurtagidan yirikligi va uchining to'ntoqligi bilan farq qiladi. G'unchada gulning barcha qismlari shakllangan. Barg qo'ltig'idan hosil bo'lgan g'uncha (gul bo'rtmasi) o'sib, rivojlanib, to yozilguncha o'tgan davr g'unchalash davri deb ataladi. Bu davr o'simlik turiga xos asosiy belgi hisoblanadi. Xalq orasida ishlatib kelinayotgan (ayrim o'simliklarga nisbatan) "*shona*" so'zi ham aslida g'uncha mazmunini beradi, shuning uchun g'unchalash davri "*shonalash davri*" deb ham yuritiladi [13.6].

Samarqand viloyati dala sharoitida ekilgan soya navlarining g'unchalash bosqichida mahalliy va xorijiy soya navlarida asosiy ildiz uzunligi ko'rsatkichlari bo'yicha navlarda 2020 yilda bir-biridan ishonchli farqlanish kuzatilmadi. 2021 yilda mahalliy To'maris-MMan-60 navi (25,58±0,44sm) va 2022 yilda mahalliy Ustoz-MMan-60 (25,21±0,9sm) navlari nazorat naviga nisbatan past natijalarni qayd etdi (2-jadval).

2020 yil Samarqand viloyatida g'unchalash davrida mahalliy va xorijiy soya navlarida bosh poya balandligi genotiplar orasida bir-biriga yaqin ekanligi va asosan 20 sm dan yuqori

ko'rsatkichlarda ekanligi qayd etildi. Olgan natijalarimiz tahliliga ko'ra bitta o'simlikdagi bosh poya balandligini o'rganish bo'yicha yuqori ko'rsatkich xorijiy navlar guruhida nazorat variantiga nisbatan yuqori natija xorijiy Nena (28,78±0,42 sm), mahalliy To'maris-MMan-60 (29,5±0,53 sm), past ko'rsatkich esa xorijiy Sparta (21,19±0,16 sm) navida qayd etildi. 2020-2022 yillarda nazorat variantiga nisbatan past natijani mahalliy To'maris-MMan-60 navida (mos ravishda 19,37±0,4 sm va 19,31±0,3 sm), qolgan barcha navlarda yuqori ko'rsatkichlarni namoyon qildi.

Xulosa. Samarqand viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan soya navlarining g'unchalash bosqichidagi asosiy ildiz uzunligi va bosh poya uzunligi ko'rsatkichlari o'rganilganda, tuproq va iqlim sharoitiga bog'liq holatda ildiz uzunligi bo'yicha nazorat naviga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar 2020 yilda Oyjamol va To'maris-MMan-60 navlarida, 2021 yilda Sparta va Nena navlarida, 2022 yilda Nena, Oyjamol, To'maris-MMan-60 navlarida aniqlandi.

Bosh poya balandligi bo'yicha esa yuqori ko'rsatkichlar 2020 yilda To'maris, 2021-2022 yillarda Oyjamol navlarida qayd etildi.

ADABIYOTLAR:

1. Азимов А., Холиқова М.А., Матниязова Х.Х. Такрорий экин сифатида экилган соянинг айрим маҳаллий ва хорижий навларининг морфоҳужалик кўрсаткичлари. 2020.№3. -B.110-112.
2. Атабаева Х.Н. Соя // Монография. – Т.: 2004. –95 б.
3. Ali N. Soybean processing and utilization // In G. Singh (Ed.), The soybean. 2010. – P. 345–374.
4. Вавилов П.П., Посипанов Г.С. Бобовые культуры и проблемы растительного белка. М., Россельхозиздат, 1983. - 256 с.
5. Chand. S. Fundamentals of Plant Physiology. 2018. -724 p
6. Kholikova Mochekhra, Matniyazova Khilola. (2022). To study the amount of chloroplast pigment in the leaves of local and foreign soybean varieties grown as a repeat crop in the conditions of Navoi and Samarkand regions. 2 (92). 36-42.
7. Kholikova Mochekhra, Matniyazova Khilola. (2023). Study of Some Physiological, Biochemical and Morpho-Economic Characteristics of Local and Foreign Soybean Varieties Grown as a Recurrent Crop in the Conditions of Navoy Region. 2 (05). 40-46.
8. Matniyazova H., Nabiyev S., Kholikova M., Mavlonova G. (2023). Physiological and biochemical parameters of soybean genotypes under diverse water regimes. SABRAO J. Breed. Genet. 55 (4). 1094-1108.
9. Raximov A.K., Boltayeva M.D., Kholikova M.A. Morphological indicators of soybean varieties planted in combination with corn. 2021.№12. -B 1151-1155 b.
10. Shavkiev J, Azimov A, Nabiev S, Khamdullaev S, Amanov B, Matniyazova H, Kholikova M, Yuldashov U (2021). Comparative performance and genetic attributes of upland cotton genotypes for yield-related traits under optimal and deficit irrigation conditions. SABRAO J. Breed. Genet. 53 (2). 157-171.
11. Xoliqova M.A., Matniyazova H.X., Amonova D.B. Takroriy ekin sifatida ekilgan soyanavrlarining morfologik belgilari. Iqlimning davom etayotgan o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o'rganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari. Konferensiya. Samarqand.2023.333-336 b.
12. Yormatova D. Tuproq oltini. // Xalq so'zi gazetasi. 2017. -B.3-4.
13. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-gg/guncha-uz/>
14. <https://soybeanresearchinfo.com/research-highlight/improving-roots-improves-soybean-yields/>